

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RAXIMOVA MOXIGUL ISROILJONOVNA

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI
XALQARO SIFAT STANDARTLARI ASOSIDA OSHIRISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD) in
Economics Sciences**

Raximova Moxigul Isroiljonovna

Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini xalqaro sifat standartlari asosida oshirish 3

Рахимова Мохигул Исроилжоновна

Повышение экспортного потенциала субъектов предпринимательства на основе международных стандартов качества..... 29

Rakhimova Moxhigul Isroiljonovna

Increasing the export potential of business entities on the basis of international quality standards..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 63

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RAXIMOVA MOXIGUL ISROILJONOVNA

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI
XALQARO SIFAT STANDARTLARI ASOSIDA OSHIRISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3637 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.nammti.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sultanov Baxodir Fayzullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adashev Azimjon O'rinboevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.05.2020.I.66.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "12" "08" soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71, Faks: (0569) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (301 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "25" "07" kuni tarqatildi.
(2024-yil "25" "07" dagi 12 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.D.Sayitbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

R.A.Rashidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),
dotsent

R.I.Israilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global integratsiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida tashqi savdo sohasi davlatni iqtisodiy rivojlanishining muhim shakllaridan biriga aylangan. Eksportga yo‘naltirilgan Yevropadagi Germaniya yoki Osiyodagi Xitoy kabi ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aynan tashqi savdo davlatning iqtisodiy rivojlanishining yetakchi yo‘nalishiga aylanishi mumkin. Aksariyat mamlakatlarda eksportga yo‘naltirilgan model to‘liq o‘zlashtirilib, ko‘plab mamlakatlar bilan savdo hamkorlikni kuchaytirish va tashqi savdoni ko‘paytirish bo‘yicha faol qadamlar qo‘yilmoqda. “Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi alohida kompaniyalarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, standartlarga yo‘naltirilgan 1 yevrolik investitsiyalar 20 yevrogacha foyda keltiradi. Buyuk Britaniyada texnologik o‘zgarishlarning YaIMga qo‘shgan hisssasi taxminan 50%ni tashkil qiladi, standartlarning texnologik o‘zgarishlarga qo‘shgan hisssasi 25%dan oshadi. Germaniyaning standartlashtirishdan oladigan yillik iqtisodiy samarasi taxminan 18 milliard yevroni tashkil etadi”¹. Bunda xalqaro standartlar talabi asosida ishlab chiqarishni tashkil etish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga xalqaro sifat standartlarini faol joriy etish muhim hisoblanadi.

Jahonda tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini xalqaro sifat standartlari asosida oshirish masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan qator izlanishlar olib borilmoqda. Xalqaro sifat standartlarini joriy etishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish, eksportga nisbatan yangi talablarni tadqiq etish, xalqaro sifat standartlarini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish, “GSP+” maxsus preferensiyalar tizimi asosida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini tadqiq etish, xalqaro sifat standartlari asosida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini xalqaro sifat standartlari asosida oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarida “milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirish va iqtisodiyot tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish, xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingtaga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko‘paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish”² kabi chora-tadbirlar belgilangan. Xalqaro sifat standartlari tadbirkorlik subyektlariga global bozorda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yordam beradigan kuchli vositadir. “Milliy standart “ovozi jaranglashi”ga erishishimiz kerak. Agar mahsulot xalqaro sertifikatga ega bo‘lmasa, u hech qachon raqobatbardosh bo‘la olmaydi. Mamlakatda har bir tadbirkor standartni bilishi,

¹Меморандума ИСО/Международного энергетического агентства IEA. <http://www.rostest.ru/International%20standardization.php>.

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-158-son farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>.

tanishi kerak, shunday muhit yaratish zarur"³. Shu nuqtai nazardan to'qimachilik tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan sifat standartlarini joriy etish va sertifikatlashtirish bugungi kundagi muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur vazifalarning izchil va samarali amalga oshirilishi o'z navbatida, bu boradagi muammolarni ilmiy tadqiq etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 21-dekabrda PF-268-son "Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 30-sentabrdagi PF-228-son "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 6-apreldagi PF-97-son "Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-fevraldagi PQ-91-son, 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-son "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish masalalari xorijiy mamlakatlarning qator olimlari, jumladan Gkypali A., Love J.H., Roper S., Sotiros D., Rodrigues V., Silva M., Mulabdic A., Yasar P., Fontagné L., Guimbard H., Orefice G., Deaza J.A., Díaz N.F., Castiblanco S., E.Barbosa, Chandra A., Paul J., Chavan M., D.Angelo, Ganotakis R., Gerschewski S., Scott-Kennel J. & Rose E.L. va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan⁴.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-sentabrdagi texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlash va metrologiya tizimidagi islohotlar natijadorligi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan.

⁴ Gkypali A., Love J.H., Roper S. (2021) Export status and SME productivity: Learning-to-export versus learning-by-exporting. *Journal of Business Research*, 128. pp. 486-498. // Sotiros D., Rodrigues V., Silva M. (2022), Analysing the export potentials of the Portuguese footwear industry by data envelopment analysis. *Omega*, 108(C). // Mulabdic A., Yasar P. (2021), Gravity Model-Based Export Potential: An Application to Turkey. *World Bank Policy Research Working Paper*, (9557). // Fontagné L., Guimbard H., Orefice G. (2022). Tariff-based product-level trade elasticities. *Journal of International Economics*, 137: 103593. // Deaza, J. A., Díaz N. F., Castiblanco S., E. Barbosa, M. I. (2020), International market selection models: a literature review. *Tendencias*, 21(2): 191-217. // Chandra A., Paul J., Chavan M. (2020). Internationalization barriers of SMEs from developing countries: A review and research agenda. *International Journal of Entrepreneurial Behaviour & Research*, 26(6), 1281-1310. // D. Angelo, A. Ganotakis P. (2020). Learning-by-exporting under fast, short-term changes: The moderating role of absorptive capacity and foreign

MDH mamlakatlari olimlaridan L.F.Gilemخانova, Yu.A.Zapolskix, T.K.Guseynova, S.V.Trebova, P.S.Pleshakov, O.V.Artemova, N.M.Logacheva, I.Yu.Nesterenko, V.M.Baginoва, V.G.Belomestnov, T.Saal, T.Savenkova, V.B.Dzobelova, A.V.Olisayeva, S.Yu.Syoxla, Ye.A.Polishik va boshqalar tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish masalalari tadqiqiga e'tibor qaratganlar⁵.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va eksport salohiyatini oshirish masalalari mamlakatimizning qator olimlari, jumladan, D.S.Qosimova, U.V.G'afurov, A.A.Aripov, R.A.Rashidov, D.A.Abdiyeva, Sh.M.Kambarova, Z.A.Xolmuminov, J.N.Nosirova, N.X.Sadriddinova, A.A.Abdiyeva⁶ va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, D.A.Abdiyeva, Sh.M.Kambarova, Z.A.Xolmuminov, J.N.Nosirova, N.X.Sadriddinova, A.A.Abdiyeva va boshqalarning tadqiqotlarida tadbirkorlik subyektlarining eksport masalalari o'rganilgan. Ammo ularning tadqiqotlarida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini sifat standartlari asosida oshirish masalalari o'rganishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ITM-6 "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

collaborative agreements. *International Business Review*, 29,101687. // Gerschewski S., Scott-Kennel J. & Rose E.L. (2020). Ready to export? The role of export readiness for superior export performance of small and medium-sized enterprises. *The World Economy*, 43, 1253–1276.

⁵ Гилемханова Л.Ф., Заполских Ю.А. Предпринимательский потенциал. // *Экономические науки*. - №46-2. 19.05.2016 - <https://novainfo.ru/article/6043>; Гусейнова Т.К. Инновационный потенциал – важнейшая составляющая экономического потенциала // В сборнике «Актуальные проблемы науки, экономики и образования XXI века». – 2012. – С.85-92. – URL: <http://bgscience.ru/lib/10859>; Требова С.В., Плешаков П.С. Предпринимательские способности населения: понятие и измерение // *Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал)*, № 9 (17), 2012. – www.sisp.nkras.ru. – С.5.; Артемова О.В., Логачева Н.М., Нестеренко И.Ю. Ресурсы для развития малого и среднего предпринимательства региона. // *Социум и власт*, 2018. № 2 (70). С.48-55.; Багинова В.М., Беломестнов В.Г. Потенциал развития малого промышленного предпринимательства в регионе. // *Известия Иркутской государственной экономической академии*, 2015. Т. 25, № 6. – С. 999-1003.; Саал Т., Савенкова Т. Экономический и инновационный потенциал малого бизнеса. // *Финансовая жизнь*. – М.: Академия менеджмента и бизнес-администрирования, 2014. – С. 22-31.; Дзобелова В.Б., Олисаева А.В. Экономический потенциал малого предпринимательства Северо-Кавказского федерального округа // *Фундаментальные исследования*, 2015. № 2-26. – С. 5864-5868; Цёхла С.Ю., Полищук Е.А. Механизм формирования и развития потенциала малого предпринимательства в сфере создания новых рабочих мест на региональном рынке труда. // *Российское предпринимательство*, 2017. Том 18. № 17. – С. 2587- 2598.

⁶ D.S.Qosimova. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Darslik. T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020. 325b.// U.V.Gafurov. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati. 2017 yil.//A.A.Aripov. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. 2020 yil.//R.A.Rashidov. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznesning rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati.2023 yil.//A.Abdiyeva. Tikuv-trikotaj mahsulotlari eksportida marketing tadqiqotlari. Monografiya. -T: Globe Edit –Germaniya/ 2021 yil. 175 bet. // Sh.M.Kambarova. O'zbekistonda innovatsiya jarayonlari rivojlanishi sharoitida kichik biznesing eksport salohiyatini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. 2023 yil. Z.A.Xolmuminov. Mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. 2023 yil.//N.J.Nosirova. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. 2022 yil.//N.X.Sadriddinova. To'qimachilik klasterining eksport salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. 2022 yil.

Tadqiqotning maqsadi tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini xalqaro sifat standartlari asosida oshirish yuzasidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xalqaro sifat standartlari va ularni joriy etishning zamonaviy nazariyalarini o'rganish;

tadbirkorlik subyektlarini eksport imkoniyatlarini oshirishda xorijiy davlatlar talablarini tadqiq etish;

xalqaro sifat standartlarini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish;

tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil etish;

Namangan viloyatidagi tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini tahlil etish va eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni baholash;

“GSP+” maxsus preferensiyalar tizimi asosida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini tadqiq etish va tavsiyalar ishlab chiqish;

xalqaro sifat standartlari asosida tadbirkorlik subyektlarini eksport salohiyatini oshirishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan to'qimachilik tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlari olingan.

Tadqiqotning predmeti xalqaro sifat standartlari asosida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish jarayonlarini tashkil etishda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida induksiya, deduksiya, sintez, ilmiy bilish, statistik tahlil, omilli tahlil, so'rov, tanlanma kuzatuv, grafik talqin, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Uslubiy yondashuvga ko'ra “sifat standarti” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mahsulot, xizmatlar yoki jarayonlarning muayyan sifat ko'rsatkichlariga javob berishini ta'minlash uchun belgilangan mezonlar yoki talablar to'plamidan iborat bo'lgan me'yoriy hujjatlar majmuini tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan;

tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi ishlab chiqarish, moliya, bozor, kadrlar salohiyati va xalqaro standartlarni joriy etishda tegishli jarayonlarni kompleks baholashning “yuqori” ($86 \leq E_{yu} \leq 100$), “barqaror” ($71 \leq E_b \leq 85$), “o'rta” ($61 \leq E_o \leq 70$), “past” ($55 \leq E_p \leq 60$), “qoniqarsiz” ($0 \leq E_q \leq 54$) miqdoriy chegaralarida eksportning maqbul hajmlarini ta'minlash asoslangan;

Savdo-sanoat palatasida tadbirkorlarning so'roviga asosan xorijiy davlatlarda mahsulotlarga qo'yilgan majburiy va qo'shimcha talablar bo'yicha ma'lumot taqdim etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'linma tashkil etish asosida eksportchi korxonalariga xalqaro sifat tizimlarini joriy etishni kengaytirish taklifi ishlab chiqilgan;

Namangan viloyatidagi to'qimachilik tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlarining istiqboldagi eksportiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nazariy tadqiqotlar asosida “sifat” va “sifat standarti” tushunchalarining mazmuni ochib berilgan va ushbu tushunchalarga mualliflik ta’rifi taklif etilgan;

xalqaro sifat standartlari asosida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilgan;

xalqaro sifat standartlarini joriy etish asosida xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar o‘rniga yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor to‘qimachilik mahsulotlari eksportini oshirish bir necha barobar qo‘shilgan qiymat hosil qilishi iqtisodiy jihatdan asoslangan;

tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish, moliya, bozor, kadrlar salohiyati va xalqaro standartlarni joriy etishda tegishli jarayonlarni kompleks baholashning “yuqori”, “barqaror”, “o‘rta”, “past” va “qoniqarsiz” miqdoriy chegaralarida eksportning maqbul hajmlarini ta’minlash asoslangan;

Namangan viloyatidagi to‘qimachilik tarmog‘idagi tadbirkorlik subyektlarining istiqboldagi eksportiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarni maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlar rasmiy manbalardan, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi ma’lumotlari, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlardan foydalanganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy tavsifdagi xulosa va takliflardan tadbirkorlik subyektlarini eksport salohiyatini yanada oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining uslubiy asoslarini takomillashtirish, amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligini oshirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish orqali aholi bandligi va turmush farovonligini ta’minlash, eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturiy hujjatlar ishlab chiqish, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik», «Tadbirkorlik asoslari», «Sifatni boshqarish», «Korxonalar iqtisodiyoti» fanlaridan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalqaro sifat standartlari asosida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “sifat standarti” tushunchasining iqtisodiy mazmunini mahsulot, xizmatlar yoki jarayonlarning muayyan sifat ko‘rsatkichlariga javob berishini ta’minlash uchun belgilangan mezonlar yoki talablar to‘plamidan iborat bo‘lgan me’yoriy hujjatlar majmuini tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari nuqtai-nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Sifatni boshqarish” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston

Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda "sifat" va "sifat standarti" tushunchlarining iqtisodiy mazmuni bo'yicha kengroq bilim va ko'nikmalar shakllantirish imkonini yaratilgan;

tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi ishlab chiqarish, moliya, bozor, kadrlar salohiyati va xalqaro standartlarni joriy etishda tegishli jarayonlarni kompleks baholashning "yuqori" ($86 \leq E_{yu} \leq 100$), "barqaror" ($71 \leq E_b \leq 85$), "o'rta" ($61 \leq E_o \leq 70$), "past" ($55 \leq E_p \leq 60$), "qoniqarsiz" ($0 \leq E_q \leq 54$) miqdoriy chegaralarida eksportning maqbul hajmlarini ta'minlash taklifi O'zbekiston savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2024-yil 25-iyundagi 9/02-26-10596-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga qo'llash natijasida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan mezonlar va bu asosida taklif etilayotgan strategiyalar "Namangan viloyatida tadbirkorlik subyektlarini eksport salohiyatini oshirishning hududiy dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilib, ushbu mezonlar asosida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati baholash hamda manzilli ishlash imkonini bergan;

Savdo-sanoat palatasida tadbirkorlarning so'roviga asosan xorijiy davlatlarda mahsulotlarga qo'yilgan majburiy va qo'shimcha talablar bo'yicha ma'lumot taqdim etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'linma tashkil etish asosida eksportchi korxonalariga xalqaro sifat tizimlarini joriy etishni kengaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-fevraldagi PQ-91-son qaroriga 1-ilova "Texnik jihatdan tartibga solish sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ga kiritilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2024-yil 25-iyundagi 9/02-26-10596-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tadbirkorlar uchun xorijiy davlatlarda mahsulotlarga qo'yilgan majburiy va qo'shimcha talablar bo'yicha ma'lumot olishning qulayligi ta'minlanib, eksportchi korxonalariga xalqaro sifat tizimlarini joriy etishni kengaytirish imkoni yaratilgan;

Namangan viloyatidagi to'qimachilik tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlarining istiqboldagi eksportiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston savdo-sanoat palatasi Namangan viloyati hududiy boshqarmasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston savdo-sanoat palatasining 2024-yil 25-iyundagi 9/02-26-10596-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi to'qimachilik tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar o'rniga tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksportini oshirish va tadbirkorlik subyektlari uchun 6-8 barobar qo'shilgan qiymat hosil qilish imkoni aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta respublika, 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola (shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta) e'lon qilingan. Shuningdek, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda 8 ta ma'ruza tezislari nashr qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yaratib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda xalqaro sifat standartlarini joriy etishning konseptual asoslari”** nomli birinchi bobida xalqaro sifat standartlari va ularni joriy etishning zamonaviy nazariyalari o'rganilgan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga xorijiy davlatlar talablari asosida xalqaro sifat standartlarini joriy etishning imkoniyatlari tadqiq etilib, ushbu standartlarining joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishning uslubiy asoslari ko'rsatib berilgan.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar hajmi va turini kengaytirish hamda shu asosida eksport salohiyatini yanada oshirish hisoblanadi.

Mamlakat eksport salohiyatini oshirishda tadbirkorlik subyektlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish iqtisodiy o'sishning ustuvor yo'nalishidir. Eksportchi tadbirkorlik subyektlari mamlakatimiz sanoati va iqtisodiyotining drayveri hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarini eksport salohiyatini rivojlantirish eksportni diversifikatsiya qilish asosida iqtisodiy xavfni kamaytirishga, xalqaro bozorlarga chiqish orqali o'z faoliyatini kengaytirib, o'z mahsulotining bir birligi tannarxini kamaytirishga, tadbirkorlik subyektlari eksport geografiyasini kengaytirish orqali xorijiy yangi bilim va tajriba orttirishga, yangi innovatsion texnologiyalar va bozorga kirib borishning zamonaviy strategiyalarini o'zlashtirishga hamda o'z faoliyatini kengaytirishga imkon beradi. Bu esa iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi va qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi.

Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan sifat standartlarini joriy etish va sertifikatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazaridan har bir davlat sifat sertifikatlari bilan hisoblashishga intilayotgani boisi ham shunda. Zero, mahsulotning dunyo bozoriga chiqib borishida unga yopishtirilgan sifat yorlig'i asosiy tashrif qog'oziga aylanyapti.

Sifat ko'p asrlar davomida rivojlanib kelgan kategoriya. Sifat umum ehtiyojlar va ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'sib borishi va ularni qondirish bo'yicha turli xil vaziyatlarda rivojlangan. «Sifat» kategoriyasini belgilashda turlicha


yondashuvlar mavjud bo‘lib, masalan J.M.Juran sifatni "mahsulot yoki xizmatning kutilgan maqsadga mosligi" deb ta’riflagan bo‘lsa, E.Deming “sifat - mahsulot yoki xizmat iste’molchining talab va umidlarini qondirish darajasi” deb ta’riflagan, F.Krosbi esa “sifat- "nuqsonsizlik" yoki “talablarga to‘liq moslik” deya ta’rif bergan va A.V.Feygenbaum sifatni “mijoz tomonidan belgilangan va iste’molchi foydasi uchun kerak bo‘lgan xususiyatlar majmuasi” deya ta’rif bergan.

ISO (International Organization for Standardization) xalqaro tashkiloti tomonidan chop etilgan ISO 9000:2015 xalqaro standartida esa “sifat— bu mahsulotning xossalari va tavsiflari majmui bo‘lib, ular mahsulotga belgilangan yoki kutilayotgan ehtiyojlarni qondirish xususiyati”⁷ deb ta’riflanadi. Bizning fikrimizcha, “sifat bu - mahsulot va xizmatlarning belgilangan yoki kutilayotgan turli xildagi ehtiyojlarni qondirishdagi xususiyat va tavsiflar majmuidir. Iste’mol madaniyati rivojlangan bugungi kunda sifat birinchi o‘ringa chiqmoqda. Bu borada butun dunyoga tushunarli “til” bu – standart⁸.

Sifat standarti - bu mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlarning sifat me’yorlari bo‘lib, ularning belgilangan talablarga muvofiqligini ta’minlaydi. Sifat standartlariga rioya qilish, shuningdek, ishlab chiqaruvchilarga o‘z mahsulotlarini bozorda farqlash va raqobatdoshligini oshirish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha sifat standarti bu - mahsulot, xizmatlar yoki jarayonlarning muayyan sifat ko‘rsatkichlariga javob berishini ta’minlash uchun belgilangan mezonlar yoki talablar to‘plamidan iborat bo‘lgan me’yoriy hujjat.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, ushbu vazifani amalga oshirish mexanizmi sifatida soha korxonalarini faoliyatiga «Oeko-teks», «Sedex», «BSCI», «GOTS», «ISO 9001» va boshqa zamonaviy xalqaro standartlarni xorijiy bozorlardagi talablardan kelib chiqib eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarda joriy etish orqali, eksportyor korxonalar qamrovini to‘liqligiga erishish belgilangan. «Oeko-teks», «Sedex», «BSCI», «GOTS», «ISO 9001» va boshqa zamonaviy xalqaro sifat standartlarni joriy etish tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish bilan birgalikda, ularga bir qator imkoniyatlarni tadqiq etadi (1-rasm).



1-rasm. Xalqaro sifat standartlarini joriy etishning afzalliklari⁹

⁷ ISO 9000:2015 xalqaro standarti.

⁸ Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 13-iyun kuni standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasidagi samaradorlikni oshirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishdagi nutqidan.

⁹ Muallif ishlanmasi.

Shuningdek xalqaro sifat standartlarini joriy etish tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirib, mijozlarning ishonchini qozonishga, xalqaro bozorlarga kirishga, qonuniy talablarga rioya qilishga, ichki samaradorlikni oshirishga, xavflarni boshqarishga brend obro'sini oshirishga, jarayonlarni me'yorlashtirishga va moliyaviy afzalliklarga imkon yaratadi.

Shu nuqtai nazaridan tadbirkorlik subyektlarini eksport salohiyatini oshirishda tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan sifat standartlarini joriy etish va sertifikatlashtirish bugungi kundagi muhim vazifa hisoblanadi. Xalqaro talablarga javob beradigan zamonaviy sifat standartlari va ularning tavsiflari 1-jadvalda keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish holati va eksport ko'rsatkichlari tahlili”** nomli ikkinchi bobida tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga xalqaro sifat standartlarini joriy etish holati hamda tadbirkorlik subyektlarining eksport ko'rsatkichlari tahlil qilingan, Namangan viloyatidagi tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati va unga ta'sir etuvchi omillar baholangan.




“O'zbekiston-2030” strategiyasida 2030-yilgacha erishiladigan samaradorlik ko'rsatkichi sifatida xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingga yetkazish belgilangan. Yevropa, Amerika va boshqa rivojlangan davlatlar bozoriga yoki brendlarga eksport hajmini oshirish uchun tadbirkorlik subyektlaridan xalqaro standart va sertifikat talab etiladi. Lekin, eksportchilarimizning 12 foizigina bunday talablarga javob berishi mamlakat prezidenti tomonidan kamchilik sifatida ta'kidlandi.

1-jadval

Zamonaviy xalqaro sifat standartlari to'g'risida ma'lumot¹⁰

№	Sertifikat nomi	Sifat standartining tavsifi
1.	 <p>ISO 9001</p>	<p>ISO 9001 - sifat menejmenti tizimi, bu dunyo miqyosida qabul qilingan sifat menejmenti tizimi bo'lib, mijozlarning talab va ehtiyojlarini tartibga soluvchi, talablarni qondirish orqali mijozlar ehtiyojini oshirishni nazarda tutadi. ISO 9001 xalqaro standarti asosan boshqarish mexanizmidir. Ushbu standartning maqsadi - xatolar va nuqsonlarni kamaytirish, yo'q qilish va oldini olish.</p>
2.	 <p>OEKO-TEX STANDARD 100</p>	<p>Oeko-Tex Standards 100 - ba'zi kimyoviy moddalardan foydalanishni cheklaydigan to'qimachilik mahsulotlarini sinovdan o'tkazish va sertifikatlash bo'yicha xalqaro tizimdir. Oeko-Tex standarti taniqli sifat belgisi bo'lib, u ishlab chiqaruvchilar uchun mahsulot sifatini qo'shimcha tasdiqlash uchun ham xizmat qiladi.</p> <p>Standartlarni ishlab chiqishdan maqsad-to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish zanjirida xavfsizlik standartini yaratish va mahsulotni ishlab chiqarish jarayonining istalgan bosqichida zararli moddalar mavjudligini tekshirish.</p>
3.	 <p>GOTS (Global Organic Textile Standard)</p>	<p>GOTS (Global Organic Textile Standard) - bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ekologik toza va tabiiy ekanligining tasdiqlovchi standart. GOTS sertifikatini olishda qo'yiladigan asosiy talab paxta yetishtirish va chuqur qayta ishlashning barcha bosqichlarida ekologik va ijtimoiy mas'uliyat to'liq bajarilishi hisoblanadi. Ya'ni atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kimyoviy vositalar ishlatilmasligi, majburiy va bolalar mehnatiga yo'l qo'yilmasligi, tayyor mahsulot tarkibida 70-75 foizi organik tola bo'lishi shart.</p>

¹⁰ Mullif ishlanmasi.

4.	Sedex (Supplier Ethical Data Exchange) 	Sedex - bu SEDEX savdo-iqtisodiy hamkorligi doirasida axloqiy me'yorlarga rioya qilish tashabbusiga qo'shilgan turli sohalardagi korxonalar uchun ijtimoiy javobgarlik auditori. Ushbu standartlarga rioya qilish tadbirkorlik subyektlariga nafaqat o'zlarining axloq qoidalarini hamda odamlarga va ish muhitiga madaniyatli yondashuv qadriyatlarini namoyish etish, balki ushbu qadriyatlarni yetkazib beruvchilar darajasiga ko'tarilish imkonini beradi.
5.	BSCI (Business Social Compliance Initiative) 	BSCI - Biznesning ijtimoiy mas'uliyat tashabbusi standarti bo'lib, BSCI maqsadi jahon savdosida ijtimoiy javobgarlik monitoringini joriy etish orqali yetkazib beruvchi mamlakatlar faoliyatini barqaror ravishda yaxshilash uchun zamin yaratishdir. BSCI ta'minotchilarning ijtimoiy faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu sohada ilg'or tajribalarni joriy etishga yetaklaydi.
6.	WRAP (World wide Responsible Accredited Production) 	WRAP – to'qimachilik mahsulotlarini AQShga eksport qilish uchun talab qilinadigan barcha standartlarga javob berishini tasdiqlaydi va «AQSh bozorining kaliti» hisoblanadi. Potensial xaridorlarning axloqiy va mas'uliyatli biznes standartlariga sodiq ekanligini ko'rsatadi. Uni olish uchun 12 tamoyilga amal qilish lozim bo'ladi.

Tahlillardan ko'radigan bo'lsak, to'qimachilik sanoatida respublika bo'yicha 2021-yilda 715 ta, 2022-yilda 808 ta 2023-yilda 968 ta tadbirkorlik subyektlari xalqaro sifat standartlariga muvofiq sertifikatlangan, ularning aksariyati Yevropa Ittifoqida talab qilinadigan idoralar markalash sertifikatini olgan. Shu bois, bugungi kunda aksariyat eksportyor tadbirkorlik subyektlari xalqaro sifat standartlarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib joriy qilishga qiziqish bildiriyaptilar.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga xalqaro sifat standartlarni joriy etish holati (2021-2023 yillarda) ¹¹

№	Standart nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023 yilda 2021 yilga o'zgarishi
1.	ISO 9001	375	380	410	35
2.	ISO 14001	149	154	160	11
3.	ISO 50001	28	34	50	22
4.	ISO 45001	103	115	156	53
5.	OEKO-TEX	52	97	120	68
6.	SEDEX	2	11	21	19
7.	BCSI	2	7	22	20
8.	GOTS	2	6	18	16
9.	WRAP	2	4	11	9
Jami		715	808	968	253

Izoh: Ushbu xalqaro sifat standartlarini amal qilish muddati 1 yildan 3 yilgacha.

¹¹ Texnik jihatdan tartibga solish agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

To‘qimachilik tarmog‘idagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga xalqaro sifat standartlarni joriy etilish holatini Namangan viloyati misolida tahlil etadigan bo‘lsak, 2023-yilda 2021-yilga nisbatan xalqaro sifat standartlarini joriy etilishi 38 taga ortgan (3-jadval). Bu esa viloyatda bu sohada amalga oshirilayotgan samarali ishlar natijasi hisoblanadi.

Biroq bu sonlar mamlakatimiz eksportni rivojlantirishda anchagina past ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Bu sohani rivojlantirishda hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalar saqlanib qolmoqda. Jumladan ikki yil oldin mamlakatimiz Yevropa davlatlariga eksport qilish imkoniyati beruvchi “GSP+” imtiyozlar tizimiga qo‘shilgan bo‘lsada, bu imtiyozlar tizimi foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda. Shuningdek, xalqaro sifat standartlarni joriy qilish va muvofiqlik sertifikatlarini olish xarajatlari Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan qoplab berish imkoniyati bo‘lsada, tadbirkorlik subyektlari bu imkoniyatdan foydalanmayaptilar. Ayrim tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat sertifikatlari yo‘qligi uchun global logistika zanjirlariga qo‘shila olmayapti. Shuningdek, 2023-yilda xalqaro standartlarni joriy qilish va sertifikat olish uchun 4,5 milliard so‘m mablag‘ berilgan 31 ta tadbirkorlik subyektlari eksport bilan umuman shug‘ullanmagan. Shularni natijasida 2023-yilida yalpi ichki mahsulot ham, sanoat ham 6 foizga o‘sgan bo‘lsada, tovarlar eksportida o‘sish bo‘lmadi.

3-jadval

Namangan viloyatida to‘qimachilik tarmog‘idagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga xalqaro sifat standartlarni joriy etish holati (2021-2023 yillarda)¹²

№	Standart nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023-yilda 2021-yilga o‘zgarishi
1.	ISO 9001	45	50	55	10
2.	ISO 14001	35	40	44	9
3.	ISO 50001	1	2	3	2
4.	ISO 45001	30	30	42	12
5.	OEKO-TEX	2	3	5	3
6.	SEDEX	1	3	2	1
7.	BCSI	1	1	2	1
8.	GOTS	2	1	2	-
9.	WRAP	-	-	2	2
Jami		117	130	155	38

Izoh: Ushbu xalqaro sifat standartlarini amal qilish muddati 1 yildan 3 yilgacha.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda to‘qimachilik sanoatida yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. To‘qimachilik sanoati iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

¹² Texnik jihatdan tartibga solish agentligi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2023-yilda qiymati 3,1 mlrd AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich umumiy eksportning 12,5% ini tashkil etgan.

Mamlakatimizda 2019-2023-yillardagi to'qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasini tahlil etadigan bo'lsak, to'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlari oshishini bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin. 2023-yilda jami to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2019-yilga nisbatan 1,9 barobarga ya'ni 87,5 foizga oshib, 3 050 mln.AQSh dollarini tashkil qildi (4-jadval).

Biroq to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2023-yilda 2022-yilga nisbatan qarayib 4%ga kamayib, 3050 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa 2022-yilga nisbatan 128 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi. Bunga bir qator sabablarni keltirish mumkin. Oxirgi ikki yilda jahon bozorida to'qimachilik mahsulotiga bo'lgan talab kamaygani, asosiy eksport bozorlarimizda valyuta kursi bilan bog'liq muammolarni yuzaga kelganligi hamda jahonda ro'y berayotgan ziddiyatlar va logistika hisobiga eksport kamaygan.

4-jadval

O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi (mln. AQSh dollari)¹³


№	To'qimachilik mahsulotlari	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-y.da 2022-y.ga nisbatan
1.	Paxtadan yigirilgan ip	926,1	940,7	1613,4	1410,8	1253,4	88,8
	<i>ulushi</i>	56,9	48,9	55,1	44,4	41,1	
2.	Tayyor to'qimachilik mahsulotlari	483,40	663,60	867,6	1179	1252,5	106,2
	<i>ulushi</i>	29,7	34,5	29,6	37,1	41,0	
3.	Trikotaj mato	89,8	154,5	249,8	340,1	306,5	90,1
	<i>ulushi</i>	5,5	8,0	8,5	10,7	10,0	
4.	Gazlamalar	55	88,7	118,5	191,8	176,5	92,0
	<i>ulushi</i>	3,4	4,6	4,0	6,0	5,9	
5.	Paypoq mahsulotlari	72,7	74,9	78,1	56,3	61,1	108,5
	<i>ulushi</i>	4,5	3,9	2,7	1,8	2,0	
	Jami	1626,9	1922,4	2927,4	3178	3050	96,0

Shuningdek, eksportimizning 50 foizi asosan 4 ta bozorlarga Rossiya, Xitoy, Qozog'iston va Turkiyaga bog'lanib qolingani yoki eksportning asosiy qismini tashkil qiladigan bir necha turdagi mahsulotlar 1 ta bozorga bog'liq bo'lib qolganligi hamda mamlakatimizning asosiy hamkor davlatlardagi iqtisodiy-siyosiy vaziyat

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

ham eksport hajmini kamayishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari eksport tovarlarining 41,1% xom-ashyo, 18% yarim tayyor mahsulotlar bo'lib, tashqi bozorlardagi narx kon'yunkturasiga bog'liq bo'lmoqda. Shuningdek eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish ustida o'z vaqtida shug'ullanilmaganligi, mamlakatimiz sertifikatlarini tan olish bo'yicha haligacha birorta davlat bilan kelishuvga erishilmaganligi ham mamlakatimiz to'qimachilik mahsulotlarini eksportini kamayishiga sabab bo'ldi.

Namangan viloyatida to'qimachilik tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport hajmini tahlilini ko'radigan bo'lsak, eksportni oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Xususan, 2023-yilda 308,7 mln. AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 55,3 % ini tashkil etidi. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (35,3 %), tayyor trikotaj kiyimlar (30,3 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 351 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 42 ta davlatiga eksport qilindi (2-rasm).



2-rasm. Namangan viloyatida 2019-2023 yillardagi eksport ko'rsatkichlari va to'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi¹⁴ (mln. AQSh dollari)¹⁵

Viloyatdagi to'qimachilik mahsulotlari eksport ko'rsatkichlarini tahlilini ko'radigan bo'lsak, 2022-yilda 390,3 mln. AQSh dollarlik eksport amalga oshirilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 81,6 mln AQSh dollari (21 foiz)ga kamayib 308,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Bu albatta sezilarli kamayish hisoblanib, Respublikadagi kamayish ko'rsatkichidan 16 foizga ko'p (5-jadval).

¹⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

**Namangan viloyatida to‘qimachilik mahsulotlari eksport ko‘rsatkichlari
bo‘yicha ma‘lumot¹⁶**

№	Ko‘rsatkich- lar nomi	O‘lchov birligi	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-y.da 2022-y.ga nisbatan (foizda)
1.	Mahsulot sotishdan tushum Jumladan:	<i>mln.doll.</i>	314	368,6	560,2	572,3	578,1	101
	Eksport	<i>mln.doll.</i>	183,4	221,5	358,5	390,3	308,7	79
	<i>Ulushi</i>	<i>foiz</i>	58,4	60,1	64	68,2	53,4	
	Ichki bozor	<i>mln.doll.</i>	130,6	147,1	201,7	182	269,4	148
	<i>Ulushi</i>	<i>foiz</i>	41,6	39,9	36,0	31,8	46,6	
2.	Ish o‘rinlari	ming kishi	20,5	23,4	30,2	31,1	31,7	102
3.	Budjetga to‘lov	mlrd.sum	194,8	225,2	291,2	301	275,9	92

Bunga asosiy sabablar yuqorida keltirildi. Shu bilan birgalikda quyidagi kamchiliklar ham viloyatning to‘qimachilik mahsulotlari eksportini pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, viloyatdagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan to‘qimachilik mahsulotlari tegishli xalqaro standartlar va texnik reglamentlar talablari asosida ishlab chiqarilish darajasi pastligi, ishlab chiqarish faoliyatiga xalqaro sifat standartlarini joriy qilish va sertifikatlash amaliyotlari talab darajasida emasligi, “GSP+” imtiyozlar tizimidan foydalanish bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmaga ega emasligi va buning natijasida eksportini Yevropa davlatlariga kengaytirish imkoniyatlarini cheklangaligi kabi muammolari viloyatning to‘qimachilik mahsulotlari eksportini 21 foizga kamayishiga sabab bo‘lmoqda.

To‘qimachilik sohasidagi tadbirkorlik subyektlarini ishlab chiqarish va eksport imkoniyatlarini oshishi o‘z navbatida qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilishiga, mamlakat budjetiga to‘lovlarni ortishiga va pirovardida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga olib keladi. Raqamlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan 7 mingdan ortiq to‘qimachilik tarmog‘idagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan jami 3,8 trln.so‘mlik soliq to‘langan bo‘lib, shundan, "O‘zto‘qimachilik sanoat" uyushmasiga a‘zo korxonalar tomonidan 2,4 trln.so‘m, paxta-to‘qimachilik klaster korxonalar tomonidan 1,6 trln.so‘m va eksportyor tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2,6 trln.so‘m byujetga to‘lovlar amalga oshirilgan. Shundan Namangan viloyatidagi to‘qimachilik tarmog‘idagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan 275,9 mlrd. so‘m byujetga to‘lovlar amalga oshirilgan.

Namangan viloyatidagi to‘qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasini ko‘radigan bo‘lsak, 2019-yildan 2022-yilgacha qadar eksport o‘sib, unga mos ravishda ish o‘rinlari ham ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu albatta Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyati va eksporti uchun yetarli shart-sharoitlar

¹⁶Statistika agentligi rasmiy ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

va infratuzilmalar yaratilganligi bilan izohlanadi. 2023-yilda to‘qimachilik mahsulotlari sotuvida eksport ulushini kamayishi budjetga to‘lovlarni ham 25,1 mlrd. so‘mga kamayishiga olib kelgan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, kelgusida to‘qimachilik mahsulotlari eksportini oshirishda, shu tarmoqda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlarining eksport imkoniyatlarini baholash va bu asosida ularning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda (6-jadval).

Bir qator MDH olimlari tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini baholashda tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatiga tayyorligini belgilovchi ekspert diagnostikasi usulini taklif etadilar. Tadqiqot ishimizda tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini “ekspert baholash” usulidan foydalanilgan xolda ishlab chiqildi. Ekspert baholashni olib borishni tashkil etishda tanlab olingan tadbirkorlik subyektlarining eksport bo‘yicha mas’ullari va rahbarlari ishtirokida ishchi guruh tuzilib, so‘rovnoma o‘tkazildi, materiallarni qayta ishlendi va jamoa ekspert baholash natijalarini tahlil qilindi.

Eksport salohiyatini belgilab beruvchi 5 ta ko‘rsatkichlar guruhi tahlil etildi: ishlab chiqarish salohiyati, moliyaviy salohiyat, bozor salohiyati, kadrlar salohiyati va xalqaro sifat standartlarini joriy etish salohiyati. Keltirilgan ko‘rsatkichlar 5 ballik tizimda baholandi. Yakuniy baholash barcha ekspertlarning o‘rtacha fikrlari bilan, o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi bilan yoki baholashning o‘rtacha me‘yorlashgan chamalangan ko‘rsatkich bilan aniqlanadi (7-jadval).

6-jadval

Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini kompleks baholash tizimi¹⁷

№	Ko‘rsatkichlar nomi	Tadbirkorlik subyektlari nomi			
		«Art Soft Holding» kompaniyasi	«Aisha Home textile » MChJ	"Chust textile" MChJ	«Biryuza group» MChJ xorijiy korxonasi
Ishlab chiqarish salohiyati					
1.	Ishlab chiqarish quvvati	5	4	4	4
2.	Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish darajasi	4	4	4	4
3.	Mahsulotlar xavfsizligi va sifat darajasi	4	2	3	4
4.	Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish darajasi	3	2	2	3
Moliyaviy salohiyat					
5.	Moliyaviy resurslar holati	4	3	3	4
6.	Mahsulot sotishning umumiy hajmi	4	3	3	4
7.	Asosiy faoliyat rentabelligi	4	2	2	3
8.	Investitsiyalarning potensial rentabelligi	3	3	4	3
9.	Moliyaviy risklarni boshqarish darajasi	3	2	3	4
Bozor salohiyati					
10.	Tovar belgisini brendga aylanganlik darajasi, imidji	4	4	3	4
11.	Marketing strategiyalaridan foydalanish darajasi va ularning samaradorligi	3	3	2	4

¹⁷ Muallif ishlanmasi.

12.	Eksportdagi raqobatbardoshlik jihati va eksport geografiyasi	4	3	2	3
13.	Samarali logistika va taqsimot darajasi	4	3	4	3
Kadrlar salohiyati					
14.	Kadrlarning miqdoriy va sifat tarkibi	3	2	3	3
15.	Boshqaruv samaradorligi	3	3	2	3
16.	Mehnat unumdorligi	4	3	3	4
Xalqaro sifat standartlarini joriy etish salohiyati					
17.	Xalqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarish darajasi (GOST, ISO, EN va x.k.)	4	3	4	4
18.	Sinov laboratoriyalarini mavjudligi	4	3	3	4
19.	Xalqaro sifat standartlarini joriy qilinganlik darajasi	4	3	4	3
20.	“GSP+” imtiyozlar tizimidan foydalanish darajasi	3	3	3	3
Jami		74	58	61	71

7-jadval

Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning miqdoriy chegara qiymatlari¹⁸

№	Baholash ko'rsatkichlari	Darajasi	Chegaraviy qiymat miqdori
1.	Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar	“yuqori”	$86 \leq E_{yu} \leq 100$
2.		“barqaror”	$71 \leq E_b \leq 85$
3.		“o'rta”	$61 \leq E_o \leq 70$
4.		“past”	$55 \leq E_p \leq 60$
5.		“qoniqarsiz”	$0 \leq E_q \leq 54$

Baholash natijalariga ko'ra «Art Soft Holding» kompaniyasi va «Biryuza group» MChJ xorijiy korxonasi eksport salohiyati mos ravishda “74” va “71”ni tashkil etib, eksport salohiyati barqaror ekanligini ko'rsatmoqda. "Chust textile" MChJ ning eksport salohiyati esa “61”ni tashkil etib, eksport salohiyati o'rta darajadali bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalari bo'yicha «Art Soft Holding» kompaniyasi, «Biryuza group» MChJ xorijiy korxonasi, «Aisha Home textile ” MChJ va "Chust textile" MChJlarining eksport salohiyati baholash natijalaridan kelib chiqib, ularning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqildi va tavsiya etildi (8-jadval).

Dissertatsiyaning **“Xalqaro sifat standartlari asosida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish istiqbollari”** nomlangan uchinchi bobida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda “GSP+” maxsus preferensiyalar tizimidan samarali foydalanish, xalqaro sifat standartlari asosida tadbirkorlik subyektlarini eksport salohiyatini oshirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari bo'yicha takliflar asoslanib, xalqaro sifat standartlari asosida tadbirkorlik subyektlarini eksport salohiyatini oshirish strategiyasi ishlab chiqilgan.

¹⁸ Muallif tomonidan ishlangan.

Jahon bozorlarida raqobat keskinlashib borayotgan ayni sharoitda mahsulotlar eksporti hajmini oshirish orqali yangi bozorlarga kirib borish va an'anaviy bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlash uchun eksport qiluvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksportini rivojlantirish respublikada olib borilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Mamlakatimiz ushbu sohani yanada isloh qilish, undagi tartib-qoidalarini soddalashtirish va optimallashtirish, tarif va tarifsiz to'siqlarni olib tashlash, eksport nomenklaturasi va geografiasini kengaytirish borasida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarini eksport imkoniyatlarini oshirishda xalqaro sifat standartlari talablarini mukammal o'rganish, jumladan «GSP+» tizimi doirasidagi imtiyozlardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi.

8-jadval

Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish strategiyalari¹⁹

Mezon chegarasi	Tadbirkorlik subyektlari	Eksport salohiyati	Tavsif	Strategiyalar
“86-100”	-	“Yuqori”	Eksport salohiyati yuqori	Global brending strategiyasi. Xalqaro sertifikatlarni olishni jadallashtirish va global logistika zanjiriga qo'shilish.
“71-85”	“Art Soft Holding” kompaniyasi «Biryuza group»MChJ xorijiy korxonasi	“Barqaror”	Eksport salohiyati barqaror	Raqobatli ustunlik strategiyasi. Xalqaro sifat standartlarni faol joriy etish, GSP+ tizimidan foydalanish darajasini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksportini oshirish.
“61-70”	"Chust textile" MChJ	“O'rta”	Eksport salohiyati o'rta darajada	Qo'llab-quvvatlash strategiyasi. Investitsiyalarni faol jalb etish, marketing strategiyalaridan samarali foydalanish, mashhur xorijiy brendlar bilan hamkorlik qilish asosida GSP+ tizimidan foydalanish.
“55-60”	«Aisha Home textile” MChJ	“Past”	Eksport salohiyati past darajada	Rag'batlantirish strategiyasi. Sifat va xavfsizlikni oshirish, kadrlar malakasini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish, eksport geografiasini kengaytirish.
“0-54”	-	“Qoniqarsiz”	Eksport salohiyati qoniqarsiz	Qayta qurish startegiyasi. Ishlab chiqarish, moliyaviy va bozor salohiyatini belgilab beruvchi chora-tadbirlar tadbirkorlik subyektlari imkoniyatidan kelib chiqib bosqichma-bosqich joriy etish.


Preferensiyalarning bosh tizimi «GSP+» rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar bozorlariga eksport qilinadigan tovarlarga bojxona tariflaridan imtiyozlar berish tizimi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining GSP+ imtiyozlar tizimidan samaralari foydalanishning muhim jihatlari: 446,8 milliondan

¹⁹ Muallif ishlanmasi.

ortiq yuqori daromadli aholi, 27 ta ilg'or davlatlardan iborat yagona bozor, yuqori qo'shilgan qiymatli keng turdagi tayyor mahsulotlarga katta talab, dunyoning eng katta brendlari va kiyim kechak kompaniyalari joylashganligi, kiyim-kechak sohasida global innovatsiya markazi, global kiyim-kechak savdosi uchun eng qulay joylashuv, 72 ta davlat bilan 41 ta erkin savdo kelishuvlari, erkin xalqaro savdoning eng ilg'or targ'ibotchisi, yuqori ish-xaqi sababli outsorsingga yuqori talab, dunyoning eng yirik re-eksportchiligi, jahon kiyim-kechak bozorining 2-eng yirik ishtirokchisidir, rivojlanayotgan davlatlarning eng yirik xaridoridir. Yevropa Ittifoqi dunyo bo'ylab kiyim-kechak importining 21% uning xissasiga to'g'ri keladi.

Respublikamiz eksportyorlari uchun Yevropa bozorlarida raqobatlasha oladigan istiqbolli yo'nalish sifatida to'qimachilik mahsulotlarini aytishimiz mumkin. "O'zto'qimachilik sanoat" ma'lumotlariga ko'ra Yevropa Ittifoqi davlatlariga eksport hajmini 2025-yilda 1,2 mlrd AQSh dollariga yetkazish ko'zda tutilgan.

Soha mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, bugungi kunda, 1 kg paxta tolasining eksport qiymati 1,5 AQSh dollarini, undan tayyorlangan kalava ip 2,5 - 3 AQSh dollarini, matoga aylantirilsa 5 - 7 AQSh dollarini va ushbu matodan tayyorlangan kiyim-kechaklar 15 - 25 AQSh dollarni tashkil etib qo'shilgan qiymat hosil bo'ladi (3-rasm).



3-rasm. Tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksportining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi²⁰

Hisob-kitoblarga qaraganda, 1 kg kalava ip olish uchun 1,15 kg paxta tolasini qayta ishlanadi. 1 kg kalava ipdan 5 metr gazlama yoki 0,93 kg trikotaj mato to'qiladi. O'z navbatida, trikotaj matoning har bir kilogrammidan o'rtacha 3-5 ta tayyor kiyim tikish mumkin bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan tahlil va hisob-kitoblardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, 2023 yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan kalava ip eksporti o'rniga, qayta ishlash natijasida yuqori qo'shilgan qiymatiga ega tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksport qilinganida mamlakatimizga qo'shimcha 1-3 mlrd. AQSh dollarigacha valyuta mablag'lari kelib tushishiga erishish mumkin bo'lar edi. Bu esa to'qimachilik mahsulotlari eksportini 10% gacha oshirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifati, raqobatbardoshligini oshirish va halqaro bozorlarda o'z o'rnini topishga ko'maklashish, tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda xalqaro

²⁰ Muallif ishlanmasi.

sifat standartlarini joriy etish va sertifikatlashtirish jarayonlarini takomillashtirish soha oldidagi dolzarb masala hisoblanadi.

Shu nuqtai nazarida olib borilgan tadqiqotlar asosida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda sifat standartlarini samarali joriy etish va sertifikatlashtirishning takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqildi (4-rasm).

Berilgan mexanizmdan ko'rish mumkinki, sifat standartlari asosida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda avvalo tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish zarur bo'lib qolmoqda. Bunda tashkiliy mexanizm sifatida quyidagilarni takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz:


- 1) milliy sertifikatlarni xalqaro darajada ikki tomonlama tan olinishga erishish;
- 2) hududlarning ixtisoslashuv darajasiga qarab sinov laboratoriyalarini tashkil etish va xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish;
- 3) sifat standartlarini joriy etishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish;
- 4) joriy qilingan xalqaro sifat standartlarini nazorat mexanizmini (baholash, bartaraf etish, rivojlantirish) ishlab chiqish.

Iqtisodiy mexanizm sifatida quyidagi chora-tadbirlarni qo'llash lozim:

- 1) xalqaro sifat sertifikatlarini olgan tadbirkorlik subyektlariga grantlar berish;
- 2) imtiyozli kreditlash, soliq va bojxona bo'yicha imtiyozlar taqdim etish;
- 3) sug'urta xizmatlaridan garov sifatida foydalanishda tadbirkorlik subyektlariga sug'urta mukofotlarini subsidiyalash;
- 4) jahon brendlari jalb etish va mahalliy brendlarni ilgari surishni moliyaviy rag'batlantirish.

Tadqiqotlarimiz natijasida to'qimachilik tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish, xalqaro sifat standartlarini joriy etishni kengaytirishda muvofiqlikni baholash yo'nalishini takomillashtirish talab etiladi. Bunda xorijiy davlatlarda to'qimachilik mahsulotlariga qo'yilgan talab majburiy va qo'shimcha talablarni o'rganish va tahlil qilish mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi. Ushbu taklifni amalga oshirishda Savdo-sanoat palatasida tadbirkorlarning so'roviga asosan xorijiy davlatlarda mahsulotlarga qo'yilgan majburiy va qo'shimcha talablar bo'yicha ma'lumot taqdim etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'linma tashkil etish lozim bo'ladi.

Savdo-sanoat palatasidagi ushbu bo'linma tadbirkorlarga xorijiy davlatlarda mahsulotlarga qo'yilgan majburiy va qo'shimcha talablar bo'yicha ma'lumotlar taqdim etish tartibini ishlab chiqib, mahsulotlarini xorijga eksport qilishda ushbu davlatlar tomonidan mahsulotlarga qo'yilgan asosiy va qo'shimcha talablar bo'yicha, talab etilgan xalqaro sifat standartlari bo'yicha batafsil ma'lumotlarni yetkazib boradilar. Shuningdek ushbu bo'linma eksportchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga sifat menejmenti tizimining xalqaro standartini joriy etishga ko'maklashadi. Bu esa tadbirkorlik subyektlari uchun xorijiy davlatlarda mahsulotlarga qo'yilgan majburiy va qo'shimcha talablar bo'yicha batafsil ma'lumot olishning qulayligi ta'minlanib, eksportchi tadbirkorlik subyektlariga xalqaro sifat tizimlarini joriy etishni kengaytirish imkoni beradi.



4-rasm. Xalqaro sifat standartlari asosida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishning takomillashtirilgan mexanizmi²¹

²¹ Muallif ishlanmasi.

Eksport hajmiga nafaqat tadbirkorlik subyekting mahsulot ishlab chiqarish hajmi, balki boshqa omillar ham albatta ta'sir qiladi. Shuning uchun bir nechta bog'liqsiz o'zgaruvchilarga ega bo'lgan regression tahlil muhim analitik vosita hisoblanadi. Bizga quyidagi jadvaldagi omillar haqidagi ma'lumotlar berilgan bo'lsin.

9-jadval

Namangan viloyatidagi to'qimachilik tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlarining eksportiga ta'sir etuvchi omillarning iqtisodiy ko'rsatkichlari (2019-2023 yillar)²²

Yillar	Eksport xajmi (mln.dollar)	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)	Moliyaviy yordam (mlrd. so'm)	Xalqaro sifat standartlarini joriy qilish, (dona)
2019	183,4	2465,4	19,8	76
2020	221,5	2495,3	24,8	98
2021	358,5	4031	26,2	117
2022	390,3	5324,4	35,6	130
2023	308,7	5360,3	48,1	155

Biz quyidagi omillar va ko'rsatkichlar asosida regressiya modelni tuzamiz. Bunda Y-eksport hajmi, X₁-mahsulot ishlab chiqarish hajmi, X₂-eksport salohiyatini oshirish uchun hukumatdan olingan moliyaviy yordam, X₃-joriy qilingan xalqaro sifat standartlari soni. Modelni quyidagicha quramiz:

$$Y = b_0 + b_1X_1 + b_2X_2 + b_3X_3 + \varepsilon, \quad (1)$$

bu yerda Y-eksport hajmi, X₁, X₂, X₃ -eksportga ta'sir qiluvchi omillar b₁, b₂, b₃ -model koeffitsientlari, ε -xatolik. Eng kichik kvadratlar usuli yordamida model koeffitsientlarini baholaymiz va quyidagi modelni hosil qilamiz:

$$Y = -62,4187 + 0,0888X_1 - 2,01766X_2 + 1,019097X_3. \quad (2)$$

Ushbu modeldan shuni xulosa qilish mumkinki, mahsulot ishlab chiqarish hajmini bir birlikka oshishi eksport hajmini 0,0888 birlikka ortishiga, ko'rsatilayotgan moliyaviy yordam bir birlikka oshishi eksport hajmini 2,02 birlikka kamayishiga va xalqaro sifat standartlarini joriy qilish bir birlikka oshishi eksport hajmini 1,02 birlikka ortishiga olib keladi.

To'plamli regressiya modellining adekvatligini tekshirish uchun quyidagi determinatsiya koeffitsiyentidan foydalaniladi.

$$R^2 = \frac{\sum_{i=1}^n (y_i - \bar{Y})^2}{\sum_{i=1}^n (Y_i - \bar{Y})^2}. \quad (3)$$

Ushbu determinatsiya koeffitsiyenti qanchalik 1ga yaqin bo'lsa, olingan model shunchalik adekvat hisoblanadi.

²² Statistika ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki 2019-2023 yillardagi eksport hajmi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, olingan moliyaviy yordam va xalqaro sifat standartlarini joriy qilish ko‘rsatkichlari uchun nohiziqi (giperbolik va polinomial) regression modeli adekvat bo‘lib hisoblanar ekan. Ushbu modellar yordamida keyingi yillar uchun ham prognoz ko‘rsatkichlarni hosil qilishimiz ham mumkin.

10-jadval

Ekonometrik model natijalarining taqqoslama jadvali²³

Eksport hajmi	$y = -17,692x^3 + 107240x^2 - 200008x + 10000011$	R² = 0,9824
Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	$y = -230,28x^3 + 10006x^2 - 300009x + 2000012$	R² = 0,9991
Moliyaviy yordam	$y = 0,5583x^3 - 3383,5x^2 + 70006x - 5000009$	R² = 0,9922
Xalqaro sifat standartlarini joriy qilish	$y = 1,25x^3 - 7578,7x^2 + 20007x - 1000010$	R² = 0,9983

Endi hosil qilingan matematik modellar asosida 2019-2023 yillardagi eksport hajmi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, qo‘shimcha olingan moliyaviy yordam va xalqaro sifat standartlarini joriy qilish ko‘rsatkichlari bo‘yicha kerakli yillargacha prognoz qilish imkoniyati paydo bo‘ladi (11-jadval).

11-jadval

Namangan viloyatidagi to‘qimachilik tarmog‘idagi tadbirkorlik subyektlarining eksportiga ta‘sir etuvchi omillarning 2024-2027-yillargacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari²⁴

Yillar	Eksport hajmi (mln.dollar)	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m)	Moliyaviy yordam (mlrd. so‘m)	Xalqaro sifat standartlarini joriy qilish, (dona)
2024	334,42	5792,1	52,4	164
2025	484,96	6228,9	68,3	172
2026	526,9	7645,2	72,8	191
2027	631,21	8439,7	91,6	208

Prognoz qilinayotgan yillar davomida Namangan viloyatidagi to‘qimachilik mahsulotlarining eksport hajmi o‘rtacha 20.4%ga, eksportga ta‘sir etuvchi omillar, xususan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 12.1%ga, hukumat tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy yordam 17.9%ga oshishi va xalqaro sifat standartlarini joriy qilish yiliga o‘rtacha 13 taga ortib borishi kutilmoqda.

Ekonometrik tahlil nafaqat eksportga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, balki ularning ta‘sirini miqdoriy baholash imkonini beradi. Bu esa to‘qimachilik

²³ Muallif ishlanmasi.

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlarini xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

1. Xalqaro sifat standartlarini joriy etish tadbirkorlik subyektlariga bir qator muhim imkoniyatlar, jumladan raqobatbardoshlikni oshirish, mijozlarning ishonchini qozonish, xalqaro bozorga kirish, qonuniy talablarga rioya qilish, ichki samaradorlikni oshirish, xavflarni boshqarish, brend obro'sini oshirish, jarayonlarni me'yorlashtirish va moliyaviy afzalliklar kabi imkoniyatlar beradi.

2. To'qimachilik mahsulotlari eksporti 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 4% ga kamayib, 3050 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa 2022-yilga nisbatan 128 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi. Bunga asosiy bozorlarimiz bo'lgan mamlakatlardagi devalvatsiya, jahonda ro'y berayotgan ziddiyatlar va logistika, eksportimizning 50 foizi asosan 4 ta bozorlarga Rossiya, Xitoy, Qozog'iston va Turkiyaga bog'lanib qolganligi yoki eksportning asosiy qismini tashkil qiladigan bir necha turdagi mahsulotlar 1 ta bozorga bog'liq bo'lib qolganligi, mamlakatimizning asosiy hamkor davlatlardagi iqtisodiy-siyosiy vaziyat hamda eksport tovarlarining tashqi bozorlardagi narx kon'yunkturasiga bog'liq bo'lib qolganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

3. Namangan viloyatidagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan to'qimachilik mahsulotlari tegishli xalqaro standartlar va texnik reglamentlar talablari asosida ishlab chiqarilish darajasi pastligi, ishlab chiqarish faoliyatiga xalqaro sifat standartlarini joriy qilish va sertifikatlash amaliyotlari talab darajasida emasligi, GSP+ imtiyozlar tizimidan foydalanish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega emasligi va buning natijasida eksportini Yevropa davlatlariga kengaytirish imkoniyatlarini cheklangaligi kabi muammolari viloyatning to'qimachilik mahsulotlari eksportini 21 foizga kamayishiga sabab bo'ldi.

4. Baholash natijalariga ko'ra «Art Soft Holding» kompaniyasi va «Biryuza group» MChJ xorijiy korxonasi eksport salohiyati mos ravishda "74" va "71" ballarni tashkil etib, eksport salohiyati barqaror ekanligini ko'rsatmoqda. "Chust textile" MChJ ning eksport salohiyati esa "61" ballni tashkil etib, eksport salohiyati o'rta darajadali bilan izohlandi. Baholash natijalari bo'yicha «Art Soft Holding» kompaniyasi, «Biryuza group» MChJ xorijiy korxonasi, «Aisha Home textile » MChJ va "Chust textile" MChJlarining eksport salohiyati baholash natijalaridan kelib chiqib, ularning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqildi va tavsiya etildi.

5. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2023-yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan kalava ip eksporti o'rniga, qayta ishlash natijasida yuqori qo'shilgan qiymatiga ega tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksport qilinganida mamlakatimizga qo'shimcha 1 - 3 mlrd. AQSh dollarigacha valyuta mablag'lari kelib tushishiga erishish mumkin bo'lar edi. Bu esa to'qimachilik mahsulotlari eksportini 10% gacha oshirish imkonini beradi.

6. Savdo-sanoat palatasida tadbirkorlarning so'roviga asosan xorijiy davlatlarda mahsulotlarga qo'yilgan majburiy va qo'shimcha talablar bo'yicha

ma'lumot taqdim etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'linma tashkil etish asosida eksportchi korxonalariga xalqaro sifat tizimlarini joriy etishni kengaytirish taklifi ishlab chiqildi.

7. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari bo'yicha xalqaro sifat standartlarini joriy etish tadbirkorlik subyektlarining umumiy eksport salohiyatini oshirgan, jumladan 26%ida mahsulot sifati yaxshilangan, 22%ida ishlab chiqarish hajmi ortgan, 22%da mehnat unumdorligi oshgan, 18%ida eksport geografiyasi kengaygan, 8%da ishlab chiqarish xarajatlari kamaygan va 4% xorijiy hamkorlar talabi bajarilgan.

8. Namangan viloyatidagi to'qimachilik tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlarining eksportiga ta'sir etuvchi omillarning 2027-yillargacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari asosida to'qimachilik mahsulotlarining eksport hajmi o'rtacha 20.4%ga, eksportga ta'sir etuvchi omillar, xususan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 12.1%ga, hukumat tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy yordam esa 17.9%ga oshishi hamda xalqaro sifat standartlarini joriy qilish yiliga o'rtacha 13 taga ortib borishi aniqlandi. Bu prognoz ko'rsatkichlar nafaqat eksportga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, balki ularning ta'sirini miqdoriy baholash imkonini beradi. Bu esa to'qimachilik tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlarini xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.05.2020.I.66.03 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

РАХИМОВА МОХИГУЛ ИСРОИЛЖАНОВНА

**ПОВЫШЕНИЕ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА СУБЪЕКТОВ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ
СТАНДАРТОВ КАЧЕСТВА**

08.00.15 – Экономика предпринимательства и малого бизнеса

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ЭКОНОМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером №B2023.4.PhD/Iqt3637.

Диссертация выполнена в Наманганском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nammti.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Мухитдинов Шухрат Зиявитдинович
доктор экономических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты:

Султанов Баходир Файзуллаевич
доктор экономических наук, профессор

Адашев Азимжон Уринбоевич
доктор философии (PhD) по экономическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится «12» 08 2024 года в 11:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/27.05.2020.I.66.03 при Наманганском инженерно-технологическом институте. (Адрес: 160115, город Наманган, ул. Касансайская, 7. Тел.: (0569) 228-76-71, Факс: (0569) 228-76-75, e-mail: nei_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института (регистрационный за № 301). (Адрес: 160115, город Наманган, ул. Касансайская, 7. Тел.: (0569) 228-76-71).

Автореферат диссертации разослан «25» 07 2024 года.
(протокол реестра № 12 от «25» 07 2024 года).



Ш.Д.Сайитбаев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Р.А.Рашидов

Учёный секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук (DSc), доцент

Р.И.Исраилов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, к.э.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях усиления глобальных интеграционных процессов в мире сфера внешней торговли стала одной из важнейших форм экономического развития государства. Опыт передовых экспортоориентированных зарубежных стран, таких как Германия в Европе или Китай в Азии, показывает, что именно внешняя торговля может стать ведущим направлением экономического развития государства. В большинстве стран полностью освоена экспортно-ориентированная модель, и предпринимаются активные шаги по укреплению торгового сотрудничества со многими странами и увеличению объема внешней торговли. “Опыт отдельных компаний в странах Евросоюза показывает, что инвестиции в стандарты в размере 1 евро приносят прибыль в размере до 20 евро. В Великобритании вклад технологических изменений в ВВП составляет около 50%, а вклад стандартов в технологические изменения — более 25%. Ежегодная экономическая выгода Германии от стандартизации составляет около 18 млрд евро”¹. При этом важно организовать производство с учетом требований международных стандартов, активно внедрять международные стандарты качества в деятельность субъектов предпринимательства.

В мире проводится ряд исследований по вопросам повышения экспортного потенциала субъектов предпринимательства на основе международных стандартов качества. Разработка современных подходов к внедрению международных стандартов качества, исследование новых требований к экспорту, разработка организационно-экономического механизма внедрения международных стандартов качества, Исследование возможностей повышения экспортного потенциала субъектов предпринимательства на основе специальной системы преференций "GSP+", использование цифровых технологий в повышении экспортного потенциала субъектов предпринимательства на основе международных стандартов качества является одним из приоритетов научно-исследовательских работ, проводимой в этой области.

В новом Узбекистане особое внимание уделяется вопросам повышения экспортного потенциала субъектов предпринимательства на основе международных стандартов качества. В показателях эффективности целей стратегии "Узбекистан-2030", которые должны быть достигнуты к 2030 году, определены такие меры, как “усиление экспортного потенциала национальной экономики и кардинальное увеличение в ее составе доли продукции с высокой добавленной стоимостью, увеличение количества предприятий, внедривших международные стандарты, в 10 раз и доведение их количества до 5 тысяч, повышение объемов готовой и полуготовой продукции в составе экспорта в 3,3 раза, расширение экспорта готовой и технологической продукции в государства Европы в рамках GSP+ и других систем”². Международные

¹ Меморандума ИСО/Международного энергетического агентства ИЕА. <http://www.rostest.ru/International%20standardization.php>.

² Указ Президента Республики Узбекистан УП-158 от 11 сентября 2023 года о стратегии «Узбекистан-2030». <https://lex.uz/docs/6600413>.

стандарты качества - это мощный инструмент, который помогает субъектам предпринимательства реализовать свой потенциал на мировом рынке. «Мы должны достичь того, чтобы национальный стандарт имел свой «веский голос». Если у продукции нет международного стандарта, она никогда не будет конкурентоспособной. Необходимо создать такую среду, в которой каждый предприниматель в стране знает и понимает стандарты»³. В связи с этим внедрение и сертификация стандартов качества, соответствующих внешнему рынку и международным требованиям, в повышении экспортного потенциала субъектов предпринимательства текстильной отрасли на сегодняшний день является важной задачей. Последовательное и эффективное выполнение этих задач, в свою очередь, приводит к необходимости научного исследования проблем в этой области.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит выполнению задач, установленных в указах Президента Республики Узбекистан УП-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии «Узбекистан-2030»», УП-111 от 21 июля 2023 года «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере инвестиций, промышленности и торговли в рамках административных реформ», УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», УП-268 от 21 декабря 2022 года «О дополнительных мерах по поддержке экспортной деятельности субъектов предпринимательства», УП-228 от 30 сентября 2022 года «О мерах по дальнейшему расширению экспортного потенциала субъектов предпринимательства», УП-97 от 6 апреля 2022 года «О дополнительных мерах по поддержке участников внешнеторговой деятельности», постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-91 от 28 февраля 2024 года, ПП-39 от 23 января 2024 года «О мерах по внедрению рейтинга устойчивости субъектов предпринимательства», ПП-292 от 4 сентября 2023 года «О мерах по реализации задач, определенных в открытом диалоге 2023 года Президента Республики Узбекистан с предпринимателями», а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Вопросы повышения экспортного потенциала субъектов предпринимательства исследовали ряд ученых зарубежных стран, в том числе Gkypali A., Love J.H., Roper S., Sotiros D., Rodrigues V., Silva M., Mulabdic A., Yasar P., Fontagné L., Guimbard H., Orefice G., Deaza J.A., Díaz N.F., Castiblanco S., E.Barbosa, Chandra A., Paul J., Chavan M., D.Angelo, Ganotakis R., Gerschewski S., Scott-Kennel J. & Rose E.L. и др.⁴.

³ Из выступления Президента Республики Узбекистан 28 сентября 2020 года на совещании, посвященном результативности реформ в системе технического регулирования, стандартизации, сертификации и метрологии.

⁴ Gkypali A., Love J.H., Roper S. (2021) Export status and SME productivity: Learning-to-export versus learning-by-exporting. *Journal of Business Research*, 128. pp. 486-498.//Sotiros D., Rodrigues V., Silva M. (2022), *Analysing the*

Среди ученых стран СНГ Л.Ф.Гилемханова, Ю.А.Запольских, Т.К.Гусейнова, С.В.Требова, П.С.Плешаков, О.В.Артемова, Н.М.Логачева, И.Ю.Нестеренко, В.М.Багинова, В.Г.Беломестнов, Т.Саал, Т.Савенкова, В.Б.Дзобелова, А.В.Олисаева, С.Ю.Сехла, Е.А.Полищук и другие⁵ сосредоточили свое внимание на исследовании вопросов повышения экспортного потенциала субъектов предпринимательства.

Особенности развития субъектов предпринимательства и вопросы повышения экспортного потенциала исследованы рядом отечественных ученых, таких как Д.С.Косимова, У.В.Гафуров, А.А.Арипов, Р.А.Рашидов, Д.А.Абдиева, Ш.М.Камбарова, З.А.Холмуминов, Ж.Н.Носирова, Н.Х.Садриддинова, А.А.Абдиева и другие⁶. Также в исследованиях Д.А.Абдиевой, Ш.М.Камбаровоной, З.А.Холмуминова, Дж.Н.Носировой, Н.Х.Сариддиновой, А.А.Абдиевой и других изучались вопросы экспорта субъектов предпринимательства. Однако в их исследованиях недостаточно внимания уделялось изучению вопросов повышения экспортного потенциала субъектов предпринимательства на основе стандартов качества.

